

XALQARO TERRORIZM VA DINIY EKSTREMIZM – JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDID

Xayitov Og'abek Egamberdi o'g'li

Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 1- bosqichtalabasi

E-mail: ogabekxayitov02@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8041954>

Annotatsiya: Ushbu maqolada butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va uning salbiy oqibatlari shuningdek, u tufayli kelib chiqayotgan ko'ngilsizliklar, uning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi. Bundan tashqari terrorizm, diniy ekstremizm nima ekanligi u qanday paydo bo'lganligi va paydo bo'lishiga nimalar sabab bo'lganini ham ko'rib o'tishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, siyosat, davlat boshqaruvi, din, demokratiya, inson huquqlari, ShHT, jinoyat, mustaqillik, globallashuv, xavfsizlik, qonun.

Kirish:

Xalqaro terrorizm 1960 - yillarning oxirida vujudga kelgan va yigirmanchi asr oxiri va yigirma birinchi asr boshlarida sezilarli darajada rivojlangan terrorizmnig o'ziga xos xalqaro darajadagi shakli hisoblanadi. Xalqaro terrorizmnig asosiy maqsadlari – davlat boshqaruvini tartibsizlantirish, uni izdan chiqarish, iqtisodiy va siyosiy zarar yetkazish, ijtimoiy tuzum asoslarini buzish shuningdek, inson sha'ni, qadr – qimmatini va huquqlarini paymol qilishdan iborat hisoblanadi. Uning asosiy belgilari globallashuv, professionallashuv va ekstremistik mafkuraga tayanish sanaladi. Shuningdek ularning o'z maqsadlariga erishish uchun internet, radio, televideniye va boshqa ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanib kelmoqda.

Xalqaro terrorizm xalqaro huquqiy tartib, davlatlararo tashqi va ichki siyosiy munosabatlarga tahdid solishi bilan bir qatorda, uning har qanday harakati bir necha davlatlarning rivojlanishiga daxl qiladi.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurash masalasi birinchi marta xalqaro miqyosda 1934 – yilda Millatlar Ligasida muhokama qilindi. Bu 1934 – yil 9 – oktabrda Marselda Yugoslaviya qiroli Aleksandr I va Fransiya Bosh vaziri Lui Bartuning o'ldirilishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun, ko'rib chiqila boshlangan.

Bu davrda terrorizmnig asosiy ko'rinishlari garovga olish, fuqarolik samaliyotlarini olib qo'yish va siyosiy qotillik bo'lgan. Eng kuchli va xavfli xalqaro terrorchi tashkilot 1969 – yilda Yasir Arafat boshchiligidagi Falastin Ozodlik Tashkiloti bo'lgan. 1960 – yillarning oxirida SSSR terrorchilik usullarini qo'llagan butun dunyo bo'ylab milliy harakatlar a'zolarini o'z safiga oldi va bir qancha maxsus lagerlarda o'qitildi.

2011 – yil 11 – sentabrda „Al – Qoida“ terrorchilari Amerika Qo'shma Shtatlardagi bir qator obektlarga hujum qilganidan beri xalqaro terrorizm yanada kuchaydi. Mutaxassislarning hisob – kitobiga ko'ra, bugungi kungacha 20 mingdan ortiq terrorchilik harakati sodir bo'lgan bo'lib, buning natijasida yuz minglab kishilar jabrlangan va halok bo'lgan. Eng achinarlisi esa ularning aksariyati tinch aholi vakillari bo'lgan.[1]

Asosiy qism:

Xalqaro terrorizm dunyodagi barcha davlatlar uchun yigirma birinchi asrning eng xatarli va xavfli bo'lgan eng katta muammolaridan biri hisoblanadi. Terrorizm o'rta asrlardan boshlab barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrab turgan. O'rta asrlarning oxiridan boshlab uning

yangi ko'rinishlari (chet el davlatlari va hukumatlari rahbarlarini, ularning diplomatik vakillarini o'ldirish yoki o'g'irlash, elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlarning binolarini portlatish, aeroportlar va vokzallarda portlatishlar sodir etish, havo kemalarini olib qochish, odamlarni qo'rqitish, garovga olish va ularni o'ldirish) vujudga keldi. Xalqaro terrorizm keng tarqalib, terrorizm oshkora siyosiy tus ola boshladi.[2]

Terrorizm (lotincha. terror – qo'rqinch, dahshat) – siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo'qotish yoki qo'rqitish, aholini o'rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo'ravonlik harakatlari amalga oshirish va ularni targ'ib qilish. Terrorizm yakka tartibdagi va guruhli (ekstremistik siyosiy to'dalar) bo'lishi mumkin. Shuningdek davlat terrorizmi ham bo'lib, terrorizmning bu shakli davlatborganlari va hukumatdan yordam olgan holatda ularga tayanib o'z maqsadlarini amalga oshiradi. Shuningdek terrorizmning yana bir ko'rinishi bu ekstremizmdir.

Ekstremizm (lotincha – o'ta, keskin) – siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritishdir. Ekstremizmning siyosiy va diniy ko'rinishi farqlanadi. Siyosiy ekstremizmning namoyandalari o'zlarining g'arazli maqsadiga erishish uchun kuch ishlatish usullaridan foydalanib, mavjud siyosiy tuzilmalarning barqaror faoliyat yuritishini buzish va yo'qotishga harakat qiladi. Bu yo'ldagi ekstremistlar o'z maqsadlariga erishish uchun „Demokratiya“ niqobi ostida harakat qiladi va qo'poruvchilik harakatlarini amalga oshiradi. Diniy ekstremizm esa, avvalo, boshqa konfessiyalarga, ularning vakillariga nisbatan toqatsiz bo'ladi va diniy tashkilotlardan dunyoviy davlatlarga qarshi kurashda foydalanadi. Ekstremizmning bunday ko'rinishlari so'ngi yillarda dunyoning deyarli barcha davlatlarida xususan, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham o'zini namoyon eta boshlagan.[3]

Zamonaviy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'p qirrali siyosatni amalga oshirishda juda katta kuch – qudratni talab etadi. Ekstremizm va terrorizm bir – biri bilan bog'liq bo'lgan yagona jarayonning ketma – ketlikda rivojlanishidir. Buni hisobga olgan holda dunyo mamlakatlari ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda muvozanatlashtirilgan reja ishlab chiqishgan. Shuningdek ularga qarshi kurashni kuchaytirish bo'yicha ko'p tomonlama konvensiyalar va qonun aktlari ham qabul qilindi. Birgina davlatimiz misolida oladigan bo'lsak yurtimizda „Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida“ 2000 – yil 15 – dekabrda qonun qabul qilindi. Qonun besh bob o'ttiz bir moddadan iborat bo'lib, ushbu qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning asosiy vazifalari shaxs, jamiyat va davlatning terrorizmdan xavfsizligini ta'minlash, davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasida terrorizmga qarshi kurash bo'yicha davlat organlari:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat Xavfsizlik Xizmati
- O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat Xavfsizlik Xizmati
- O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi
- O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi
- O'zbekiston Respublikasi Mdofta vazirligi
- O'zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Bulardan tashqari O'zbekiston Respublikasida terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo'yish va uning oqibatlarini minimallashtirish borasidagi hamkorlikda harakat qilishlarini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Davlat Xavfsizlik Xizmati tomonidan amalga oshiriladi.[4]

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda ekstremizm va terrorizm barqaror rivojlanish va dunyodagi millatlararo totuvlikka tahdid solmoqda. Bu esa ularni bartaraf etish yo'llarini izlash uchun birgalikda harakat qilishni talab etadi. Ushbu maqsadlar yo'lida qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashni global xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti deb hisoblaydi hamda ushbu jarayonning doimiy ishtirokchisi va tashabbuskoridir. Birgina misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkar Mirziyoyev 2020 - yil 10 - noyabr kuni Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining video anjuman shaklida o'tgan navbatdagi majlisida so'zlagan nutqida terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha mintaqada o'zaro hamkorlikning ahamiyatini yanada oshirish zarurligiga ahamiyat qaratdi.[5]

Bugungi kun nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak ekstremizm va terrorizm dunyo hamjamiyatini tashvishga soladigan eng global muammolardan biridir. Buning oldini olish bo'yicha eng mukammal ishlangan reja va tashabbuslarni ilgari surib, bir qator konvensiyalarni ishlab chiqishmoqda. Bu esa albatta ekstremizm va terrorizmning jamiyatda va butun dunyo davlatlarida chuqur ildiz otishiga yo'l qo'ymaydi.

Shu o'rinda qo'shimcha sifatida shuni aytib o'tib o'tish lozimki, agar qaysi davlatda davlat boshqaruvi, siyosiy boshqaruv to'g'ri olib borilsa, ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor berilib, jamiyatdagi barcha shaxslarning huquqiy ong va huquqiy madaniyati mutaassil oshirib borilsa bu davlat qudratli bo'lur, hech bir tashqi kuch bu davlatga tahdid sola olmaydi. O'zbekiston Respublikasida ham xuddi shunday oqilona siyosat olib borilib, alohida e'tibor berilmoqda.[6]

References:

1. „International Terrorism: a new kind of warfare” (2012 – yil 6 – oktabr)
2. Z.I.A.Karimov; Terrorizm xavfi to'g'risida, Terrorizm, 2001; „Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch – qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq”. Terrorizm 2004.
3. M.Rajabova; „Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash muammolari” Terrorizm/2003.
4. „Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida”gi 2000 – yil 15 – dekabrda O'RQ – 167-II son
5. iiv.uz
6. „Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy – ma'rifiy asoslari”. Toshkent - 2018